



**TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI
RIVOJLANTIRISH**

Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

*Andijon fakulteti "Soliqlar va soliqqa
tortish" yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

PhD Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti AF

Annotatsiya: *So'nggi yillarda mamlakatimizda sog'lom ishbilarmonlik muhitini yaratish, xususiy sektor faoliyatini kengaytirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotda raqobatni ta'minlash, tadbirkorlik sub'ektlariga teng sharoitlar yaratish, xususiy investitsiyalar hajmini hamda biznes doiralarning ishonchini keskin oshirish yo'nalishlarida keng ko'lamlı islohotlarga yo'l ochildi.*

Kalit so'zlar: *Strategiya, inklyuziv, raqobat, sub'ektlar, xususiy, raqobat, barqaror, xo'jalik.*

Binobarin, zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy poydevori sifatida, tadbirkorlik faoliyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Albatta tadbirkorlik istiqbolli soha bo'lib, rivojlanib borayotgan davlatlar tayanchi hisoblanadi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslarni, mamlakatimiz rahbari yaqindan qo'llab-quvvatlamoqdalar. Shu bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyatida sog'lom raqobatni ta'minlash borasida, ham alohida tamoyillar asosida shakllantirilgan iqtisodiy rejalar olib borilmoqda. Xususan, 2022—2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda mazkur soha rivoji alohida o'rinn tutishini ta'kidlash joiz. Inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish orqali kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish, bozor munosabatlariiga to'laqonli o'tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yanada mustahkamlash hamda yuqoridagi jihatlarni yanada taraqqiy toptirish maqsadlarini amalga oshirish uchun me'yoriy hujjatning zarurligini islohotlarning o'zi taqozo qildi.

Shu ma'noda Prezidentimizning "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi Farmoni mazkur masalalarga ijro tizimini belgilashda munosib javob bo'ldi, desak mubolag'a emas. [1]

Xususan, tovar va moliya bozorida raqobatni cheklashga olib keluvchi kelishuvlar (kelishib olingan harakatlar) va iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish, tovar va moliya bozoridagi ustun (monopol) mavqeni hamda yuqori muzokara ustunligini suiste'mol qilganlik, ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega mahsulotlar narxlarini asossiz oshirganlik va insofsiz raqobat, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qo'shib yuborishda,

qo'shib olishda va ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aktsiyalarni (ulushlarni) sotib olish bo'yicha bitimlar tuzishda raqobat to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik, ommaviy savdolarda raqobatga zid harakatlar amalga oshirganlik va monopoliyaga qarshi talablarni buzganlik holatlari uchun moliyaviy jarimalar jazo sifatida tayinlanadi. Bu bilan sog'lom raqobat muhiti shakllanadi, moliyaviy jarimalar summasi to'liq, Davlat byudjetiga yo'naltiriladi hamda raqobatga qarshi harakatlarning boshqa turlari uchun ham javobgarlik nazarda tutiladi. Shuningdek, Farmonda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xususiy sektorning rolini oshirish, barcha tarmoq va sohalarda xususiy sektorning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning muhim bandlari qat'iy belgilab qo'yildi.[2]

Sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda davlatning iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki prinsiplari, shartlari qayta ko'rib chiqilishi va qonun darajasida aniq-tiniq qilib mustahkamlanishi zarur. Bu borada muayyan qoidalar belgilangan. Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish hisoblanadi. Bu yo'nalishda davlat mulkini xususiy lashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'yecktlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiy lashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlanтирish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish rejallashtirilgan.[3]

Darhaqiqat, tadbirkorlik har qanday iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini, chunki u iqtisodiy o'sish, ish o'rnlari va innovatsiyalarni rag'batlantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Ammo tadbirkorlik faoliyatining samarali va rivojlanishi uchun sog'lom muhiti zarur. Sog'lom tadbirkorlarni shakllantirishda esa, o'z kuchini to'liq amalga oshirishga, innovatsion mahsulotlarni taklif qilishga undaydi.

Xulosa o'rnida, shuni aytish mumkinki, tadbirkorlik faoliyatida sog'lom muhitni shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlanтирish uchun muhim omil bo'lib, xizmat qiladi. Raqobat tadbirkorlarni yanada samaraliroq bo'lishga va yangi innovatsiyalarni joriy qilishga zamin yaratadi. Sog'lom muhitini himoya qilish uchun davlatadolatli tartiblar joriy etish, monopoliyalarning cheklash va tadbirkorlarga teng huquqli bo'lishi kerak. Shu bilan birga, subyektlar o'zaro biznesda halol raqobat va korruptsiyaga qarshi kurashish orqali jamiyatning umumiy farovonligini tiklay oladi. Sog'lom shaxsiy tadbirkorlikni rivojlanтирish, nafaqat iste'molchilar uchun sifatli va arzon mahsulotlarni ishlab chiqarish, balki aholining ishsizlik ko'rsatkichlarini sezilarli kamaytirishga, ham alohida hissa qo'shadi. Qisqacha qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyatida sog'lom muhitni rivojlanтирish – iqtisodiy o'sish, innovatsiyalarni joriy etish va jamiyat farovonligini tiklash uchun zaruriy sharoitdir.



CANADA



CANADA

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Davlatning,,tadbirkorlik,,faoliyatida,,ishtiroki...<https://m.kun.uz/uz/news/2020/06/20> [1].
2. Sog'lom raqobat muhiti yaratish...<https://parliament.gov.uz/articles/104> [2].
3. Harakatlar strategiyasida...<https://parliament.gov.uz/news> [3].